

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT
INSTITUTI**

“IQTISODIYOT” FAKULTETI

**«BUXGALTERIYA HISOB VA AUDIT»
KAFEDRASI**

***M-40 GURUH TALABASI
JO'RALOV OYBEKNING***

**«MOLIYA»
fanidan**

**“Moliyaviy nazoratning turlari, shakllari va usullari”
mavzusida yozgan**

KURS ISHI

Bajardi:

Jo'ralov O.

Tekshirdi:

dots.G.Erkayeava

Qarshi– 2011yil

Moliyaviy nazoratning turlari, shakllari va usullari

Kirish

I-bob. Moliyaviy nazoratni tashkil etish, tarkibi va ularning ob'ekti va sub'ektlari.

- 1.1 Moliyaviy nazoratning mohiyati va vazifalari.
- 1.2 Moliyaviy nazorat tizimi va tamoyillari.
- 1.3 Moliyaviy nazorat o'tkazishning shakl va usullari.

II-bob. Byudjet moliya nazoratining shakl va usullari.

- 2.1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida auditorlik nazoratini vujudga kelishi va o'tkazish tartibi.
- 2.2. Nodavlat moliyaviy nazoratni amalga oshirish xususiyatlari.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi ilk mustaqillik yillaridagi bozor iqtisodiga o'tish asosiy maqsadimiz va vazifamizga aylandi. Chunki shu davrdan boshlab xo'jalik yurituvchi sub'ektlari hisoblangan yuridik va jismoniy shaxslarning davlat bilan bo'ladigan moliya-munosabatlar yangidan shakllana boshlandi. Moliya xo'jalik munosabatlarining tashkil etilishida va rivojlanishida yangi-yangi mulk shakllari paydo bo'la boshladi. Shu bilan birga moliya sohasini va moliya tizimini rivojlantirish uni muvofiqlashtirish, tartibga solish va nazorat qilish zaruratini uyg'otdi.

Hozirgi kunga kelib mamlakatimizda o'nlab, yuzlab, minglab kichik va o'rta biznes sub'ektlari, korxonalar-tashkilotlar, firma va korxonalar, kompaniyalar, korporatsiyalar, ochiq va yopiq turdagi aksionerlik jamiyatlari, tijorat banklar, invititsiya kompaniyalari, turli xil nobyudjet fanlar va boshqa turli mulk shaxsiga ega xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ular o'z faoliyatlarini amaldagi qonunlar, farmonlar, nizom va normativlar asosida to'g'ri olib borayotganlarini bilish, davlat soliqlarini o'z vaqtida to'liq to'layotganliklarini tekshirish va bilish bo'lishi mumkin bo'lgan moliyaviy huquq buzarlilarni oldini olish hozirgi moliyaviy nazoratni hal qilish lozim bo'lgan vazifalaridan hisoblanadi. Prezidentimiz mana shu muommolarni hal qilish maqsadida qonun chiqaruvchi organ hisoblangan Oliy Majlisga o'zlarini bir qancha takliflarini kiritdilar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 123-moddasida soliq va soliqqa tortish to'g'risida umumiy to'xtalib, uning huquqiy zaminini yaratdi. Shundan kelib chiqib Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbuslari bilan 1993-yil 21-dekabr "Markaziy bank to'g'risida" 1997-yil 29-avgust "Davlat soliq xizmati to'g'risida" va boshqa bir qancha O'zbekiston Respublikasi qonunlari qabul qilindi.

Moliyaviy nazoratni asosan ikki ko'rinishda izohlash mumkin.

1. qonun va qonunsizlikka doir farmonlar va nizomlar asosida faoliyat ko'rsatishni va moliyaviy iqtisodga to'liq rioya etishni nazoratini amalga oshirayotgan maxsus tashkil etilgan nazorat organlari sifatida.

2. moliyaviy operatsiyalarning samaradorligini oshirish maqsadida moliya va pul massasini mikro va makro kulonda boshqarish sifatida kirish mumkin.

Nazorat davlat boshqaruv organlarining ayrim boshqaruv sohalarida davlat tomonidan belgilangan qoidalarga xo'jalik sub'ektlari mansabdor shaxslar rioya etishni tekshirishdan iborat faoliyatdir.

Moliyaviy nazoratni tashkil etish, tarkibi va ularning ob'ekti va sub'ektlari

Moliyaviy nazoratni tashkil etish uning o'ziga xos xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Jamiyatda iqtisodiy hayotning turli xil sohalarida va xo'jalik boshqaruvidagi ko'p qirrali murakkab vazifalarni hal qilishda moliyaviy nazorat faol ishtirok etadi, shunga binoan uni tashkil etish uchun mavhum bir talablarni aniqlashni taqoza etadi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy nazorat o'zaro bog'langan holda ikkiga ajraladi:

- Davlat moliya nazorati;
- Nodavlat moliya nazorati;

Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi sub'ektlar o'z mavqeidan kelib chiqib quyidagicha farqlanadi;

- davlat moliya nazorati;
- korxona ichidagi moliyaviy nazorat;
- jamoa moliyaviy nazorati;
- auditorlik moliyaviy nazorati.

Davlat hokimiyati, birinchi navbatda qonun chiqaruvchi organlar va ijroiya hokimiyat va nazorat qilish vakolatiga ega bo'lgan boshqaruv organlari byudjet-moliya nazoratining sub'ektlari sifatida ishtirok etadilar. Davlat moliya nazorati umumdavlat boshqaruv organlari bilan bir qatorda, alohida vazirliklar orqali ham amalga oshiriladi. O'zbekistonda bu Oliy Majlis, Prezident devoni, Vazirlar Mahkamasi, Moliya Vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi, Markaziy bankdir. Umumdavlat boshqaruv organlari moliya nazoratini amalga oshirishda, mamlakat hududidagi xo'jalik sub'ektlari mulk shakli va vazirlikka bo'ysunadigan qat'iy nazar bo'lishinii qamrab oladi. Vazirliklar tomonidan amalga oshirilayotgan moliya nazoratini faqat o'zlarining tarkibidagi maxsus nazorat

taftish organlari amalga oshiradi. Ularning tekshirish ob'ektlari esa vazirliklar tarkibidagi korxonalar, idoralar, tashkilotlar, konsernlar, korparatsiyalar, assatsatsiyalar, va aksiyonerlik jamiyatlarning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatidan iborat bo'ladi. Moliya xo'jalik nazorati moddiy ishlab chiqarish sohasida amalga oshirilib, uning sub'ektlari, tarmoq vazirliklari, idoralar, ob'ektlari, zavodlar, fabrikalar, qurilish tashkiloti va boshqalardir. Korxona ichidagi moliyaviy nazoratni, tashkilot va muassasa ichida tashkil qilingan iqtisodiy xizmatlarni amalga oshiradi. Nazorat ob'ekti bo'lib alohida korxonaning moliya va ishlab chiqarish jarayoni hamda alohida korxonaning tarkibiga kiruvchi tuzilmaviy bilimlar hisoblanadi. Jamoa moliya nazorati alohida guruh, alohida jismoniy shaxslardir. Auditorlik moliya nazoratini maxsus auditorlik tekshirish litsenziyasiga ega bo'lgan auditorlik firmalari va xizmatlari amalga oshiriladi.

Yuzaga kelgan murakkab sharoitda moliyaviy nazoratni ishonchli va samarali mexanizmda davlat hukumati organlari bilan boshqaruv organlari kelishgan holda faoliyat olib borishi lozim.

- moliyaviy qonun buzilishini aniqlash va bartaraf etish;
- davlatga moliyaviy zararni qonun bilan belgilangan soliqlar, pensiyalar, shtraflar va boshqa sanksiyalar yordamida moddiy qoplashni ta'minlash.

Moliyaviy nazoratni qonuniy ravishda zarurat tug'ilganda va o'z vakolati chegaralarida O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv organlari olib boradi.

Ulardan Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat mulk qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi va boshqalar.

Markaziy bank tijorat banklarini nazorat qiladi va qolgan fondlarni faoliyat nazoratini Moliya vazirligi qoshidagi maxsus tuzilgan inspeksiyalar olib borishadi. Davlat moliya nazorati organi bo'lib Moliya vazirligi qoshida tuzilgan nazorat, taftish boshqarmasi hisoblanadi.

1996-yil 8-avgustda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti "Tekshirishlarni tartibga solish va nazorat organlari faoliyatlarini kondinatsiyasini takomillashtirish" to'g'risidagi qarorga imzo qo'ydi. Unda tekshiruvlarni nazorat

qilish maqsadida, xo'jalik sub'ektlarining faoliyatiga, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, nazorat organlari tomonidan sababsiz aralashishga yo'l qo'ymaslik zarur. Xo'jalik sub'ektlarini moliya xo'jalik faoliyatini tekshirish va taxmin qilishni kordinatsiyalash O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi zimmasiga yuklatildi.

- Yil, yarim va kvartal davrida rejali tekshirishlarni o'tkazish jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlash.

- Amalda kompleks tekshirishlarni o'tkazishni kiritish va ularda bitta korxona vakolatini tashkilotlar tomonidan tekshirilib, shuni o'tkaziladigan tekshirishlar miqdorini va ayrim masalalarni qayta tekshirishlarni kamaytirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan 1996-yil 26- avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti apparatining Nazorat inspeksiyasi tashkil etildi.

Nazorat inspeksiyasi tizimiga quyidagilar kiradi:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorg'i kengash raisi qoshidagi nazorat inspeksiyasi;
2. Respublika, shahar hokimiyati apparatining nazorat inspeksiyasi.

Davlat soliq qo'mitasi moliya nazoratining operativ organi hisoblanadi. Davlat soliq qo'mitasi O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuniga binoan o'z faoliyatini olib boradi.

Moliyaviy nazoratning mohiyati va funksiyalari .

Moliyaviy nazorat ob'ektiv iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaga xos bo'lgan nazorat xossasining amaldagi ifodasidir.

Moliyaviy nazoratga ikki jihatdan qaraladi:

1. Maxsus tashkil etilgan nazorat organlarining barcha iqtisodiy sub'ektlar tomonidan moliyaviy qonunlarga va moliyaviy intizomga amal qilisi ustidan qat'iy belgilangan tartibda olib boradigan faoliyat;

2. Moliyaviy operatsiyalarning maqsadga muvofiqligini va samaradorligini makro va mikro darajada ta'minlash maqsadida moliyani va pul oqimlarini boshqarishning ajralmas elementi sifatida.

Nazoratning har ikkala sifati ham o'zaro bog'liq bo'lib, nazorat maqsadlari, usullari, sub'ektlari bilan bir-biridan farq qiladi. Agarda birinchi holatda nazoratning huquqiy va miqdoriy jihatlari ustivor bo'lsa, ikkinchi asosiy e'tibor moliyaviy nazoratning tahliliy tomonlariga qaratilgan. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy nazorat o'zaro aloqadorlikda bo'lgan ikkita alohida sohaga ajratilgan bo'ladi.

Davlat va nodavlat moliyaviy nazorat.

Davlat moliyaviy nazorati konkret hokimiyat va boshqaruv organlarining, davlatning asosiy qonunlariga tayanib, maqsadga muvofiq ravishda amalga oshiriladigan iqtisodiy huquqiy faoliyati majmuidan iboratdir. Moliyaviy nazoratni tashkil qilishda mamlakat konstitutsiyasi muhim rol o'ynaydi. Nazoratning huquqiy tartibiga davlat turiga, uning ijtimoiy siyosiy yo'nalishiga iqtisodiy taraqqiyot darajasiga, mulk shaklining nisbatiga bog'liq bo'ladi.

Davlat moliya nazorati, yalpi ichki mahsulot taqsimlanishining qiymat nisbatlarini kuzatib borishi kerak. U davlatning pul resuslarini shakllanishi bilan bog'liq, pul mablag'lari harakatining barcha kanallariga tarqaladi, ularda resurslarning to'liq o'z vaqtida tushirish va maqsadli foydalanishni nazorat qilib boradi. Davlat nazoratlari va davlat sektorida ham, xususiy va aksiyadorlik tashkilotlarida ham umummilliy, iqtisodiy manfaatlardan kelib chiqib tekshirish o'tkazish huquqiga ega bo'ladi.

Davlat moliya nazorati: ichki (tashkilot ichidagi) va tashqi (auditorlik) nazoratlariga bo'linadi.

Nazoratning davlat va nodavlat turlari bir xil usullarga amal qilsada yakuniy maqsadlari tubdan farq qiladi. Davlat nazoratining bosh maqsadi, resurslar tashishini ko'paytirish bo'lsa, nodavlat nazorat (asosan firma ichidagi nazorat) aksincha, o'zining davlatga ajratmalarini va boshqa xarajatlarini kamaytirib, shu asosda sarflangan kapitalga to'g'ri keladigan foyda normasini ko'paytirishga intiladi.

Ayni chog'da nazoratning har ikkala sohasi ham mavjud qonunlarning huquqiy doirasi bilan cheklangan bo'ladi. Moliyaviy nazorat tizimi va tamoyillari

quyidagicha. Rivojlangan G'arb mamlakatlarida moliyaviy nazorat tizimi umuman bir xil va u o'z ichiga quyidagi elementlarni oladi:

- bosh taftishchi auditor mahkamasi (hisob-kitob palatasi). U bevosita mamlakat parlamentiga yoki Prezidentiga bo'yso'nadi.

Ushbu mahkamaning asosiy vazifasi:

- davlat mablag'lari sarflanishi ustidan umumiy nazorat qilishdir;
- Soliq mahkamasi. Prezident hukumatiga yoki moliya vazirligiga bo'ysinishi mumkin. Soliq daromadlarining xazinaga to'liq tushushini nazorat qilish.
- Davlat mahkamalari tarkibidagi nazorat tuzilmalari o'zlariga qarashli ishlarni amalga oshiradi.
- nodavlat nazorat xizmatlari tijorat asosida hisobat hujjatlarining ishonchliligini va moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligini tekshiradi.
- ichki nazorat xizmatlarining asosiy vazifasi xarajatlarini kamaytirish, moliyaviy oqimlarni oqilona tashkil qilib foydani ko'paytirishdan iborat.

Jahon hamjamiyati ko'p yillik tajribalar asosida davlat moliyaviy nazoratini tashkil qilishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqadi. Bu tamoyillarni amalga oshirishga har bir zamonaviy sivilizatsiyalashgan davlatlar intiladi.

Ob'ektivlik va asoslanganlik nazoratchilar tomonidan amaldagi qonunlarga amal qilinishi, ularning yuksak darajada kasb mahoratlariga tayanib, taftish ishlarini qat'iy o'rnatilgan mezonlar asosida o'tkazilishini nazarda tutadi. Oshkoralik davlat nazoratchilarining jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan doimiy aloqa qilib turishini bildiradi.

Ushbu asosiy tamoyillardan boshqa nisbatan amaliy xarakterdagi konkret tamoyillar kelib chiqadi;

- natijaviylik;
- nazoratchilar tomonidan qo'yiladigan talabning aniq va mantiqiyliqi;
- nazoratchilarning sotilmasligi;
- tekshiruv va taftish aktlarida keltirilgan axborotlarning asoslanganligi va isbotlanishi;
- har xil tekshiruv organlari faoliyatining muofiqlashtirilganligi.

Moliyaviy nazorat tizimiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi qonunlarni qabul qilishda davlat yuqorida sanab o'tilgan tamoyillarga asoslanadi.

Ayni chog'da har bir davlatda nazorat faoliyatining o'z reglamenti mavjud bo'ladiki, u oxir oqibatda nazorat natijalarida o'z ifodasini topadi.

Davlat moliyaviy nazoratining asosiy usullari kompleks taftishlar va mavzuli tekshiruvlardir.

Taftish va tekshiruvlarni o'tkazish usullari nazoratchilarni yuborayotgan mahkamalar oldiga qanday konkret vazifalarni qo'yishga bog'liq. Agarda taftish ma'naviy operatsiyalarning qonuniyligi va to'g'ri o'tkazilganligi hamda ma'naviy axborotlarning ishonchliligini nazorat qilishga qaratilgan bo'lsa, u holda tekshiruv moliyaviy resurslarni boshqaruv sifatini aniqlashni maqsad qilgan bo'ladi.

Bunda resurslarni rejalashtirishdan tortib, foydalanishgacha bo'lgan barcha bosqichlarning samaradorligi baholanib o'tkazilgan moliyaviy operatsiyalarning maqsadga muvofiqligi aniqlanadi.

Nazorat natijaviyligini nafaqat davlat nazoratchilarining kasb mahorati darajasiga va auditorlarning mustaqilligiga bog'liq, balki taftish va tekshiruvlarning tartibiga ham bog'liq bo'ladi.

Moliyaviy taftishlarni o'tkazish tartibini va ketma-ketligini belgilash, buxg'alteriya schyot mezonlariga asoslanadi.

Kompleks taftish o'tkazishning hamma tomonidan tan olingan umumiy reglamentini nazorat organlarining quyidagi bosqichma-bosqich faoliyatlarini o'z ichiga oladi.

a) Tovar material qimmatliklarini, tugallanmagan ishlab chiqarishni, ayrim fabrikatlarni, ofisdagi va bo'sh joylardagi uskunalarni, pul mablag'lari va hisob-kitoblarning mavjudligi va yaxshi saqlanganligini inventarizatsiya qilib chiqadi;

b) hujjatlarning rasmiylashtirilishi to'g'riligi ko'zdan kechirilib, yakuniy raqamlar arifmetik hisob-kitob qilinadi;

c) hujjatlarda moliya-xo'jalik operatsiyalarining to'liq va to'g'ri aks ettirilganligi tekshirib chiqiladi. Birlamchi yozuvlar asosida miqdoriy yig'ma ma'lumotlar tekshirib chiqiladi. Shuningdek asosiy reyistirlarida ishlama jadvallar,

jurnal, bosh daftar va boshqalardagi buxgalteriya yozuvlarining to'la va to'g'ri aks ettirilganligi tekshirib chiqiladi.

d) hisob-kitob ko'rsatkichlarining to'g'ri hisoblanganligi tekshiriladi.

e) Hisobotlarning to'g'ri tuzilganligi tekshiriladi. Buxgalteriya, moliya, soliq, statistika, sug'urta, kredit va boshqa mamlakat qonunchiligida nazarda tutilgan hisobotlarning to'g'riligi tahlil qilinadi.

Nazoratning boshqa shakllari, hujjat mavzuli tekshiruvlar, tegishli nazorat shakllari yoki firma rahbariyati tomonidan belgilangan tartib reglament asosida amalga oshiriladi.

Moliyaviy nazoratning natijaviyligi moliyaviy tartib buzilishlarga nisbatan ko'rsatiladigan choralarga ham bog'liq bo'ladi. Jahon amaliyotida moliyaviy nazoratning ikkita shakllangan modeli mavlud:

- birinchisi angyu-gekson modeli bo'lib, bunda nazorat organlarining faoliyati tekshiruv taftish haqida hisobot tuzish bilan yakunlanadi.

Moliyaviy tartib buzganliklar uchun choralarni ma'muriy va sud organlari ko'rib chiqadi.

Fransuz modeliga amal qilinadigan davlatlarda esa nazorat organlari ayrim sudyalarga xos funksiyalarni ham bajaradi, ya'ni moliyaviy tartib buzilishda aybdor shaxslarning aybdorlik darajasini belgilab, yetkazilgan moliyaviy tartib buzilishda aybdor shaxslarning aybdorlik darajasini belgilab, yetkazilgan moliyaviy zararni qoplashni talab qilishga haqlidir.

Moliyaviy nazorat o'tkazishning shakl va usullari.

Moliyaviy nazorat o'tkazishning shakllari va usuli rang-barang. Nazorat shakllarini quyidagi mezonlarga qarab klassifikatsiya qilish qabul qilingan;

- amalga oshirish tartibi (reglamenti)ga qarab majburiy (tashqi) tashabbuskorlik (ichki);
- o'tkazish vaqtiga qarab oldindan, joriy, keyingi o'tkazilgan tekshiruvlar;
- Nazorat sub'ektiga qarab prezidentlik, qonun chiqaruvchi hokimiyat organi va mahalliy o'z-o'zini boshqarish idoralari tomonidan uyushtiriladigan, ijro

hokimiyati organlari nazorati, firma ichidagi va auditorlik nazoratlarini ajratish mumkin;

- Nazorat ob'ektiga qarab byudjetni nazorat qilish, byudjetdan tashqari fondlarni nazorat qilish, soliq, valyuta, kredit, sug'urta, investitsiya, pul massasini nazorat qilish turlarini ajratish mumkin.

Nazorat qilishning quyidagi usullarini farqlamoq kerak;

- tekshiruvlar;
- ko'zdan kechirish;
- nazorat qilish;
- moliyaviy holatni tahlil qilish;
- kuzatish
- taftish qilish.

O'tkazish tartibi va vaqti bilan farq qiladigan moliyaviy nazoratlar.

Jismoniy va huquqiy shaxslarning moliyaviy faoliyati ustidan majburiy nazorat qonun asosida amalga oshiriladi. Bu soliqlar tuzilishini tekshirish, korxona va tashkilotlarning moliya buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlarini majburiy ravishda auditorlik tekshiruvidan o'tkazib tasdiqlanishi va boshqalarga taalluqlidir.

Tashabbusli nazorat moliyaviy qonunchilikdan kelib chiqmaydi, biroq taktik va strategik maqsadlarga erishish yo'lida moliya boshqarishning ajralmas qismi hisoblanadi.

Oldindan o'tkaziladigan moliyaviy nazorat, moliyaviy operatsiya o'tkazmadan avval amalga oshiriladi va mumkin bo'lgan moliyaviy tartib buzilishlarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. U mablag'larni tejamsiz va samarasiz sarflanishining oldini olish uchun harakatlarning asoslanganligini moliyaviy jihatdan baholaydi. Makrodarajada bunday nazoratga misol qilib, barcha darajadagi byudjetlarni, byudjetdan tashqari foizlarning moliyaviy rejalarini mamlakat iqtisodiyoti rivojining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bashoratlari asosida tuzib chiqish va tasdiqlash jarayonini ko'rsatish mumkin. Mikrodarajada bu jarayon moliyaviy rejalarini, smeta, kredit va kassa arizalarini, biznes rejalarining moliyaviy bo'limlarini ishlab chiqish va tasdiqlash, balans tahminlarini

tuzish, birgalikdagi faoliyat yuzasidan shartnomalar tuzish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Joriy moliyaviy nazorat pul bitimlarini, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish, subsidiyalar ajratish va boshqalar paytida amalga oshiriladi.

Joriy moliyaviy nazorat pul bitimlarini, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish, ssudalar berish, subsidiyalar ajratish va boshqalar paytida amalga oshiriladi. Moliyaviy intizomning saqlanishiga, pul hisob-kitoblarning o'z vaqtida amalga oshirilishida yordam beradi. Bunda buxgalteriya hujjatlari katta rol o'naydi.

Keyingi moliyaviy nazorat moliyaviy hisobotni va buxgalteriya hujjatlarini taftish va nazorat qilish yo'li bilan o'tkazilib, u iqtisodiy sub'ektlarning moliyaviy faoliyati natijalarini, taklif etilgan moliyaviy strategiyasini amalga oshirish samaradorligini baholash moliyaviy harajatlarni taqqoslash uchun mo'ljallangandir.

Ko'zdan kechirish tekshirishdan shunisi bilan farq qiladiki bunda o'rganila yotgan iqtisodiy sub'ektning moliyaviy holatini va istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash uchun ancha keng miqyosli moliya iqtisodiy ko'rsatkichlari majmui qamrab olgan.

Nazorat qilish u yoki bu moliyaviy faoliyat turi bilan shug'ullanishga litsenziya olgan iqtisodiy sub'ektlarni nazorat qiluvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi va ushbu sub'ektlarning ularning belgilangan normativlarga qanchalik amal qilishlarini aniqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat bankining faoliyati nazorat qilinadi; soliq inspeksiyalari tomonidan tadbirkorlik korxonalarining soliqlarni to'liq o'tkazishlari nazorat qilinadi. Normativlarga amal qilinmasligi, bankrotlik xavfini tug'diradi, mijozlar manfaatlariga zarar etkazish litsenziyaning olinishiga sabab bo'lishi mumkin.

Moliyaviy holatni tahlil qilish moliyaviy nazoratning bir turi sifatida davriy va yillik moliya-buxgalteriya hisobotlarini birma-bir o'rganib chiqib, moliyaviy faoliyat va mavjudlikning o'z kapitali bilan taminlanishi va undan samarali foydalanish natijalariga umumiy baho berish uchun xizmat qiladi.

Kuzatish-kredit tashkilotlari tomonidan berilgan ssudadan qanday foydalanilayotganini va mijoz korxonaning moliyaviy holatini doimiy nazorat qilishdir. Olingan ssudadan samarali foydalanish va likvidlikning pasayishi, kreditlashtirish shartlarining og'irlashtirishiga ssudani muddatidan avval qaytarilishini talab qilinishiga sabab bo'lishi mumkin.

Taftish- moliyaviy nazoratning eng chuqur va har taraflama qamrab oluvchi metodi bo'lib, bu iqtisodiy subektning moliya-xo'jalik faoliyatini to'la o'rganish.

Taftishlar: to'liq va qisman; kompleks va mavzuli; rejali va rejadan tashqari turlarga bo'linadi.

Taftishlar boshqaruv organlari tomonidan tobe-korxona va muassasalarga nisbatan hamda har xil davlat va nodavlat nazorat organlari tomonidan o'tkazilishi mumkin.

Taftish natijalari akt bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu akt asosida tartib buzilishlarning oldini olish choralari ko'riladi, yetkazilgan zarar qoplanadi, aybdorlar jazoga tortiladi.

Byudjet moliya nazoratining shakl va usullari.

Qonunchilik hokimiyati barcha darajadagi organlari byudjet moliya nazoratining quyidagi shakllarini amalga oshirad:

1. Oldindan nazorat qilish haqidagi qonunlar loyihalarni hamda boshqa byudjet moliya masalalari bo'yicha qonunlar va qarorlarning loyihasini muhokama qilish va tasdiqlash jarayonida;

2. Joriy nazorat- parlament muhokamasi jarayonida va deputatlik talabiga muvofiq, byudjet ijrosining ayrim masalalarini qo'mitalar komissiyalar ishchi guruhlarida kirib chiqish jarayonida;

3. Keyingi nazorat byudjetlarning ijrosi haqidagi hisobotlarni ko'rib chiqib tasdiqlash jarayonida. Bunda byudjet xarajarlari funksional klassifikatsiyasining har bir bo'limi va bo'limchalari bo'yicha xulosalar chiqariladi.

Byudjet mablag'laridan va kassa xarajatlaridan maqsadga muvofiq foydalanilmaganlik hollari va bu holga yo'l qo'ygan davlat rahbarlarining, bu jarayonga yo'l qo'ygan davlat xazinasining mutassadi shakllarianiqlanadi:Bunda:

- xarajatlarning funksional klassifikatsiyasi har bir bo'limi va b'limchasi bo'yicha ortiqcha sarf xarajatga yo'l qo'yish hollari aniqlanadi va bunga aybdor bo'lgan mansabdor shaxslar bo'yicha xulosalar chiqariladi;

- davlat byudjeti to'g'risidagi qonunga yoki byudjet ro'yxatida ko'rsatilmagan xarajatlarni moliyalashtirishning har bir holati bo'yicha alohida xulosa chiqariladi.

Byudjet kreditlari va byudjet ssudalarini olgan hamda sustov fondida xorijiy investorlarga tegishli umidga ega bo'lgan barcha korxonalar tekshiriladi.

Majburiy auditorlik tekshiruvlari davlat organlari; praktura, moliya vazirligi, soliq xizmatlari topshirig'i bilan ham o'tkaziladi. Yuridik shaxs majburiy auditorlik tekshiruvidan bosh tortsa yoki uning o'tkazilishiga to'sqinlik qilsa sudning qarori bilan jarima to'laydi.

Auditorlik tekshiruvlarini alohida fuqarolar ham, davlat attestatsiyasidan tortib, tadbirkor, auditor sifatida ro'yxatga olinib, o'tkazishlari, shuningdek, auditorlik firmalari ham amalga oshirilishlari mumkin. Ularga har qanday tashkiliy huquqiy shaklda bo'lishi mumkin.

Nazorat organlari va auditorlik tekshiruvlari jarayonida:

- byudjet mablag'larini berish va so'ndirish tahlil qilinib qonunlarga xilof ravishda berilgan byudjet kreditlari va ssudalari bo'yich xulosalar chiqariladi;

- davlat kafolatlari bo'yicha majburiyatlarning berilishi va ularning ijrosi tahlil qilinib, qonunlarga xilof ravishda davlat kafolatlari bo'yicha majburiyatlarning byudjet mablag'lari hisobidan bajarilganlik holatlari tekshirilib tahlil qilinadi;

- byudjet investitsiyalari berilishini tahlil qilish, tuzilgan shartnomalarda davlat manfatlari qanchalik ta'minlanganligini tahlil qilish, qonunlarga xilof ravishda byudjetdan amalga oshirilgan investitsiyalarini aniqlanib ular bo'yicha xulosalar chiqariladi; Davlat xizmatlari ko'rsatish va ularga moliyaviy mablag'larning normativlar asosida sarflanishi tahlil qilinadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida auditorlik nazoratini vujudga kelishi va uni o'tkazish tartibi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik sub'ektlari o'zaro iqtisodiy-moliyaviy munosabatlarni xo'jalik yuritilishida hamda xalqaro masshtabda olib boradi.

Bu holat o'z o'rnida moliyaviy ma'lumotlar, hisobotlarni to'g'rilik, haqqoniylik va asoslilik zahirida bo'lishini talab etadi. Mamlakatimizda auditorlik institutlarini tashkil qilish va mos ravishda rivojlantirish mazkur vazifalarni hamda muammolarni qisqa davrda bartaraf etishga xizmat qiladi.

Auditor - bu davlat xizmatchisi emas, balki moliya, hisob va nazorat sohasidagi yuqori malakali mutaxassis bo'lgan revizordir.


Ichki auditning yo'nalishi maqsadi korxonalarda moliyaviy xo'jalik faoliyatini shakllantirish boshqaruv qarorlarini o'z vaqtida ijrosini hamda reglamentini va faollikni maksimal qilishga qaratilgan.

Ichki auditni vazifalariga quyidagilar kiradi

1. Yillik hisobotni tayyorlash vaqtida buxgalteriya hisobi va qoida prinsiplariga rioya qilishni ta'minlash;
2. Tashqi auditorlar tavsiyalarini ko'rib chiqish va qayta ishlash;
3. Firma rahbariga korxona, moliya tashkilotining barcha savollari bo'yicha javoblar va maslahatlar berish.

Yirik auditorlik firmalarining tuzilishi quyidagicha:

YIRIK AUDITORLIK FIRMALARINING TUZILISHI



Muhimlik, audit riski va audit strategiyasi. Audit rejasini ishlab chiqish jarayonida auditor tomonidan e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan yana bir muhim masala, muhimlik va audit riski darajasini belgilab olishdir. Muhimlikni sonda ifodalash auditor uchun tekshiruv ko'lamini belgilashda yordam beradi.

Buxgalteriya aniq hisob-kitobga asoslangan soha bo'lsada unda taxminlar, farazlar qo'llaniladi.

Auditorlar bu xatoliklarni ikki guruhga bo'ladilar.

1. Muhim (katta) xatoliklar.
2. Muhim bo'lmagan (kichik) xatoliklar.

Audit tekshiruvi yuqori sifatli shu bilan birga mijoz uchun eng arzon qiymatda o'tkazish maqsadida xatoliklar ichida faqatgina muhim hisoblanganlarini tanlab oladi va tekshiradi.

“Jiddiy va auditorlik riski” nomli №9 AFMS ga asosan muhimlik moliyaviy hisobotdagi xatoning ushbu hisobotdan malakali foydalanuvchi unga asosan to'g'ri xulosalar chiqarishi va to'g'ri qarorlar qabul qilishga mone'lik qiladigan chegaradir. Muhim bo'lmagan xatoliklarning auditor tomonidan tekshirilmasligiga sabab quyidagicha;

1) bu xatoliklar juda kichik va ommaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanuvchilar qaroriga har qanday vaziyatda ham jiddiy ta'sir etmaydi.

2) xatoliklarning sababini aniqlash va to'g'irlash uchun ko'p vaqt va mablag' talab etiladi.

3) bu holatlarning sababini aniqlash va to'g'rilash uchun sarflangan vaqt natijasida moliyaviy hisobotlarni topshirish muddatlari o'tib ketishi mumkin, moliyaviy hisobotlarda keltirilgan ko'rsatgichlarda 5% gacha xatolik muhim deb hisoblanmasligi mumkin, ammo bu xatolik 10% dan oshganda muhim hisoblanadi va auditor tomonidan tekshirilishi kerak.

Xalqaro amaliyotda muhimlik ko'rsatgichini belgilashda direktuv uslub qo'llaniladi va muhimlik quyidagicha oshirishda yangidan aniqlanadi.

1. Rejalashtirish jarayonida;
2. Audit tekshiruvini o'tkazish jarayonida;
3. Auditorlik xulosalarini tayyorlash jarayonida.

Birinchi bosqichda auditor o'z malakasi va moliyaviy hisobotlarning dastlabki tahlili asosida qabul qilinishi mumkin bo'lgan va moliyaviy ma'lumotlardan foydalanuvchilarining qaroriga ta'sir etmaydigan xo'jalikning eng yuqori va quyi chegaralarini belgilaydi.

Minimal chegaradan bo'lgan xo'jaliklar muhim bo'lmagan xo'jalik hisoblanadi. Maksimal ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan xo'jaliklar esa muhim xo'jalik bo'ladi. Xo'jalik maksimal va minimal ko'rsatkichlar orasida bo'lsa, auditor bu xo'jalikni muhim bo'lgan yoli muhim bo'lmagan xatolik qatoriga kirishi uchun tahliliy mulohazalarni qo'llash kerak,

Muhimlikning dastlabki belgilangan chegarasi

T/p	Asosiy ko'rsatkich	Asos ko'rsatkichning bu nima degani undagi ifodasi	Muhimlikning auditor belgilangan dastlabki ko'rsatkichi			
			minimum		maksimum	
			%	Ming so'm	%	Ming so'm
1	Joriy aktivlar	60000	5	3000	10	6000
2	Joriy majburiyatlar	70000	2	14000	8	36000
3	Yangi daromad	120000	3	36000	9	10800

Ikkinchi bosqichda auditor qabul qilinishi mumkin bo'lgan xatolikning umumiy kattalikning o'rtasida tasdiqlaydi.

Muhimlikning dastlabki belgilangan chegara ko'rsatkichini joriy aktiv elementlari o'rtasida taqsimlash, ming so'm

Korxona balansidagi joriy aktivlar	minimum	maksimum
Pul mablag'lari	192	384
Debitorlik qarzlari	795	1590
Tovar-moddiy zahiralar	2013	4026
Jami:	3000	6000

Yuqorida keltirilgan misoda auditor o'z tajribasiga tayangan holda ortiqcha qiyinchiliklarsiz pul mablag'lari va dekrorlik qarzlari hisoblari bo'yicha xatolikning yuqori va quyi chegarasini belgilash mumkin.

Shu sabab auditor balans hisobotining bu element sohasiga nisbatan xatolik chegarasini joriy aktivlarga nisbatan yuqoriroq qilib belgilash lozim bo'ladi.

Uchinchi bosqichda xatolikning xaqiqiy qiymatni aniqlash natijani dastlabki belgilangan ko'rsatkich bilan taqqoslashdan iborat.

Misol uchun auditor tovar- moddiy zaxiralar auditini o'tkazish jarayonida bu element ko'rsatish uning umumiy haqiqiy ko'rsatgichidan 726 ming so'mga oshirib ko'rsatilganini aniqladi. Bu jarayonda 3772 ming so'm xajmdagi TMZ lar bo'yicha operatsiyalarni aks ettirgan dastlabki xujjatlar va hisob registrlari o'rganildi. TMZ ning umumiy joriy aktiv guruxiga nisbatan (6000 ming so'm) hajmi 34560 ming so'mni tashkil etadi. Natijada, TMZ bo'yicha oshirib ko'rsatilgan xatolikning sondagi ifodasi 4347 ming so'mni tashkil etadi ($726:5772 \times 34560$).

Shu tartibdagi hisob-kitob debitorlik qarzlari va pul mablag'lari elementlar bo'yicha ham o'tkaziladi. Faraz qilaylik, shu uslib bo'yicha muhimlik ko'rsatgichi yuzasidan hisob-kitob qilinganda pul mablag'lari bo'yicha xatolik 174 ming so'mni tashkil etdi. Debitorlik qarzlari bo'yicha xatolik esa 1318 ming so'mni tashkil etmoqda. Olingan natija 0.7 jadvalda ko'rib chiqilgan.

Muhimlikning dastlabki belgilagan chegarasi va haqiqiy xatolik ko'rsatkichlarining siyosiy tahlili.

Joriy aktivlar	Muhimlikning dastlabki belgilangan chegarasi		Haqiqiy xatolik	Haqiqiy xatolik hajmining dastlabki belgilangan kursatkichidan chetlanish hajmi	
	minimum	maksimum		minimum	maksimum
Pul mablag`lari	192	384	174	18	210
Debitorlik qarzlari	795	1990	1318	523	272
TMG	2013	4026	4347	2310	321
Jami:	3000	6000	5839	2839	161

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki pul mablag'lari bo'yicha xatolik sunmasa muhimlik ning minimal chegarasidan past.

Pul mablag'lari bo'yicha xatolik hajmi muhim emas va pul mablag'lari bo'yicha ma'naviy hisobotlarda keltirigan ma'lumotlar to'g'ri shu sabab auditor bu hisoblarni ma'lumotlari to'g'riligi yuzasidan testlar o'tkazish kerak.

Nodavlat moliyaviy nazoratni amalga oshirish xususiyatlar.

Bozor iqtisodiyoti asoslarining shakillantirilib borilishi, moliyaviy nazoratni bevosita davlatni nazorat organlari ishtirokisiz amalga oshiriladigan turlarning iqtisodiyotdagi rolini oshiradi. Moliyaviy nazoratning nodavlat turlariga firma ichidan (korparatsiya ichidagi) nazorat mijoz tashkilotlar ustidan tijorat banklar amalga oshiradigan nazorat auditorlik nazoratiga kiradi. Firma ichidagi moliyaviy nazorat korxona, korporatsiyaning iqtisodiy xizmatlar buxgalteriya, moliya bo'limi, moliyaviy menejment xizmatlari tomonidan, o'z korxonasi, uning filiallari va sho'ba tuzilmalarining moliyaviy faoliyati ustidan amalga oshiriladi. Ichki nazorat xizmatlari pul mablag'larning (o'z qarz va jalb qilingan) maqsadga muvofiq va samarali foydalashni uzliksiz kuzatib, nazorat qilib boradi: haqiqatda erishilgan moliyaviy natijalarni bashorat qilgan ko'rsatgichlar bilan taqqoslab tahlil qiladi, investitsiya loyihalarining natijalarini moliyaviy baholaydi. Korxonaning moliyaviy xolatini nazorat qilib boradi. Ichki nazorat kapitalni investitsiyalashning butun jarayonini kuzatadi.

Ichki nazorat kapitalni investitsiyalashning butun jarayonini kuzatadi. Biznes rejaning moliya bo'limida bashorat qilingan ko'rsatgichlar bilan erishilgan natijalarning taqqoslanishini; ularning mos kelmasligi sabablarini tahlil qilish va bartaraf qilish xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy bashorat qilish usullarini yaxshilash yo'llarini bilishga qaratilgan bo'ladi. Tijorat banklar tomonidan amalga oshiriladigan nazorat.

Iqtisodiy islohatlar jarayonida bank tizimi va uning tarkibida tijorat banklarning paydo bo'lishi, banklarning moliyaviy nazorat sohasidagi funksiyalarni anchagina o'zgartirib yuboradi.

Shu bilan birga barcha banklar o'z likvidligini ushlab turish zaruratidan kelib chiqib, qarz oluvchi korxonalarning kredit layoqati va moliyaviy holatini baholaydi. Kredit bergan taqdirda esa, bank berilgan ssudadan foydalanishni, mijozning to'lov layoqati va likvidligini nazorat qiladi, belgilangan muddatda kredit summasini barcha foiz to'lovlar bilan qaytarilish ehtimolini baholaydi.

Auditorlik nazorat - bu moliyaviy nazoratning yangi turi bo'lib, O'zbekistonda 80 yillardan qo'llanila boshlandi. Boshqaruvning bozor tizimiga

bosqichma-bosqich o'tila borgani sari, har xil tijorat turining ko'payib borishi, ularning moliyaviy ishonchliligi talabni keskin ko'paytiradi hamda ularning moliyaviy holatini ob'yektiv baholash zaruriyatini ko'ndalang qilib qo'ydi.

Auditorlik nazoratining asosiy vazifalariga tekshirilayotgan iqtisodiy sub'yektlarga buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va ishlab chiqarish moliya xo'jalik operatsiyalarining O'zbekistonda amal qilayotgan normativ hujjatlarga aniqlashdan, to'lov hisob-kitob hujjatlarning, soliq bayonotlarini va boshqa moliyaviy majburiyatlarini to'g'ri va to'liq bajarilishini tekshirish kiradi.

Auditorlik mahkamalari boshqa turdagi xizmatlarni ham ko'rsatishlari mumkin. Buxgalteriya schyotini yo'lga quyish va yuritilishi, buxgalteriya hisobotlar va daromadlar to'g'risidagi bayonnomalar tuzish, moliya xo'jalik faoliyatini tahlil qilib bashoratlar berish buxgalteriya xizmat sohasi xodimlarini o'qitish va qonunchilik masalalari bo'yicha konsultatsiyalar berish, auditorlik tekshiruvlar natijalarga asoslanib tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Respublika pul-kredit siyosati komissiyasi zimmasiga Respublikada naqd pul komissiyasi va xalq xo'jaligida hisob-kitoblarning ahvoli ustidan nazoratni kuchaytirish bo'yicha chora tadbirlar majmuini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan valyuta operatsiyalarini amalga oshirish va O'zbekiston iqtisodiyoti ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun ajratiladigan kreditlardan maqsadli foydalanish tartibiga qat'iy rioya etishini ta'minlash vazifasini yuklatadi.

Bozor iqtisodiyoti asoslarining shakllantirilib borishida moliyaviy nazoratning ham o'z urni va muhim bazifalari bor.

Moliyaviy nazorat moliyaviy intizomni bajarishda korxonalar tashkilotlar muassalar hamda davlat va moliya bank tizimidagi masu'liyat bilan chambarchas bog'liq.

Moliyaviy nazorat davlat tomonidan tashkil etilgan nazorat qilish vazifalari yuklatilgan davlat yoki mustaqil jamoa organlari tomonidan hukumat korxonalari tashkilotlar va muassasalar faoliyatining samaradorligini aniqlashga qaratilgan nazorat tizimidir

Davlat byudjetini shakllantirish va sarflanishdagi rezerflarni moliyaviy va moddiy resurslarda boshqarishning barcha darajadagi operatsiyalarning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini qonuniylik prinsiplarida rioya qilish va ularning buzilishlarini aniqlash masalasi muhim sanaladi.

Nazoratdan maqsad tuzatish choralarini ko'rish aybdorlarini esa javobgarlikka tortish va qonun buzarlarni oldini olishdan iboratdir.

Jamiiyatda iqtisodiy hayotning turli hil sohalarida va xo'jalik sub'ektlaridagi ko'p qirrali murakkab vazifarni hal qilishda moliyaviy nazorat faol ishtirok etadi. Shunga binoan uni tashkil etish ham o'z o'rnida amalga oshirilishini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I. Karimov Jaxon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T-2009 y.
2. I.Karimov Asosiy vazifamiz-Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirishdir. T-2010y. Vahobov A. va boshqalar. Byudjet – soliq siyosati yaxlitligi. O'quv qo'llanma.–T.:Iqtisod va moliya nashriyoti. 2005 yil-285b.
3. Vahobov A. va boshqalar Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. T.: Sharq nashriyoti. 2005 yil. 220 b.
4. A.Vaxobov va boshqalar. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. T.:Sharq nashriyoti.2003 yil.399 b.
5. Malikov T., Haydarov N., “Davlat byudjeti” o'quv qo'llanma, Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007, 84b.
6. Malikov T., Haydarov N., “Byudjet daromadlari va xarajatlari” o'quv qo'llanma, Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007y, 245 b.
7. Malikov T., Haydarov N., “Byudjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni” o'quv qo'llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA”, 2008y, 84 b.
8. Yo'ldoshov Z., Malikov T. “Uy xo'jaligi moliyasi” o'quv qo'llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA”, 2008y, 105 b.
9. Alimov I.I. “Moliya” o'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2007 y. 108 b.

Internet saytlar:

www.minfin.ru

www.mf.uz

www.budget.ru